

Suxandon - soʻz sehgari

Ijodiy uchrashuvlar ham aslida, noanʼanaviy dars oʻrnida ahamiyatlidir. Uning taʼsir kuchi ham zavqli, ham shavqli boʻladi. Taʼbir joiz boʻlsa, aytish mumkinki, har kuni bir xil taom yeydigan inson axiyri, zada boʻladi, tabʼi tirriq boʻladi. Shu bois turli isteʼdod sohiblari bilan uchrashish taʼlim jarayonining sifati va samarasiga daxldordir. Soʻz, nutq, til hodisasi qudratli qurol. Undan unumli foydalana olish muvaffaqiyatlar eshigini ochadi va ayni paytda, innovatsion ixtirolarga garovdir.

Xuddi shu maʼnoda, suxandon soʻz sehgari va zargari sifatida nutqdan oʻrinli foydalanishi, nozik his etishi bilan alohida ajralib turadi. Soʻz oʻrnida, sidqidildan va vaqtida aytilgani bilan mohiyat kasb etadi.

Shoir, diktora, ijodkor inson Muslimbek Yoʻldoshev bilan institutimiz jamoasi, pedagog va talabalar orasidagi ijodiy muloqot samimiy tarzda kechdi. "Ibratli, ijodkor insonlar" ruknidagi uchrashuvning navbatdagi sonida mehmoni boʻlgan Muslimbek aka oʻzining hayotiy va ijodiy faoliyati misolida soʻz xosiyati va nutq mohiyati, diktoralik sanʼati borasida qimmatli mulohazalarini bildirib oʻtdilar. Ular "Siz meni taniysiz", "Koʻnglim koshonasi", "Moʻminga begona bahor", "Diydor shirin", "Suxandonlar" kabi 10ga yaqin kitoblarning muallifi sifatida oʻz kabdashlariga mehr va sadoqat bilan qaraydigan xokisor insondir. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi, oliy toifali diktora, "Turon" fanlar akademiyasining akademigi Muslimbek Yoʻldoshev oʻz ijodidan namunalar oʻqish asnosida talabalarning qiziqqan savollariga javob berib oʻtdi. Tadbir qiziqarli va ancha jonli tarzda, samimiy yoʻsinda tashkil etilgani bilan alohida ajralib turdi.

Muslimbek aka qalamiga mansub boʻlgan ushbu toʻrtlik oʻzlarining ijod yoʻliga, muxlislariga, nutqqa mehri va muhrigina boʻlib qolmay, balki yaratganga shukronasi hamdir.

Ollohim, beadam Oʻzingga shukur,

Yetqazgan nasiba, roʻzingga shukur.

Nutqimga qaratding ming-ming qulingni

Qulingga baxsh etgan Soʻzingga shukur.



"Gumanitar fanlar" kafedrasining oʻqituvchisi Bahriiddin Muqimov

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov